

18-noyabr – “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan kun

# INSON va qonun

2024-YIL  
19-NOYABR  
SESHANBA

№ 46  
(1458)

www.hudud24.uz

@huquqiyaxborot



Huquqiy axborot  
telegram kanaliga  
obuna bo‘ling!



Huquqiy  
axborot  
telegram  
kanalida  
kuzating!



www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

# VATANIMIZNING MUQADDAS TIMSOLI



**DAVLAT** ramzlari har bir mamlakatning suvereniteti va mustaqilligini ifodalovchi muqaddas timsollardir. O‘zbekistonning davlat ramzlari xalqimizning shon-sharafi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o‘zida mujassam etib, shu yurtida yashovchi har bir fuqaroga g‘urur, faxr va iftixor bag‘ishlaydi.

Shu bois, bayrog‘imiz yoki gerbimizga nazar solganimizda yoki madhiyamiz yangraganda biz ruhan ko‘tarinkilikni, azmu shijoatimiz oshganini, qalbimizda g‘urur va buyuk istiqbolga ishonch tuyg‘usini his etamiz.

Bayroq so‘zi “botroq” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, botirmoq ma‘nosida keladi. Qadimgi turklar tuproqqa botirilgan tirgovichlarning uchiga qabilalarning ramzi sifatida matolar yoki iplar osar edilar. Vaqt o‘tishi bilan bu “Tuproqqa botirilgan yog‘och” “to‘lqinlangan davlat ramzi”ga aylanadi.

Avval bayroqlar faqatgina xabarlashish, signal berish kabi maqsadlarda ishlatilgan. Mamlakatlar o‘z bayroqlariga ega bo‘lishlari esa, o‘rta asrlarda urushlarda ikki taraf bir-biridan farqlanmoq uchun bayroq ishlatilgan. Shunday qilib har bir mamlakatning o‘z bayrog‘i paydo bo‘la boshlagan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida shu kunga qadar 10 ga yaqin

o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. So‘nggi o‘zgartirish 2023-yil 7-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonuni bo‘ldi.

Qonun bilan davlat bayrog‘idan foydalanilishi mumkin bo‘lgan holatlar kengaytirildi va ayrim cheklolvar olib tashlanib, istisnoli holatlarga aniqlik kiritildi. Ya‘ni, bayroq va uning tasviri tushirilgan belgilardan jamoat joylarida, binolarda, yashash yoki ish joylarida, transport salonida;

bayroqdan sport musobaqalari, ommaviy, tantanali va madaniy tadbirlarda, oilaviy bayramlarda, xotira sanalarini nishonlashda, jamiyat va davlat arboblari, harbiy xizmatchilar dafn marosimlarida;

xalqaro sport musobaqalari hamda O‘zbekiston chempionatlari uchun sport kiyimlarini tayyorlash uchun bayroqning tasviri tushirilgan

belgilardan foydalanish mumkin.

Shuningdek, qonun bilan bayroqqa nisbatan hurmatsizlik qilish holatlari aniq belgilandi, xususan:

bayroqdan va uning tasviri tushirilgan belgilardan yirtilgan, ifloslangan, teshilgan, rangi oqargan holda va boshqa nomaqbul tarzda foydalanish;

biror-bir narsa uchun ustki yoping‘ich sifatida foydalanish;

stollarga, o‘rindiqlarga, stullarga to‘shash yoki tasvirlash, undan qoplama sifatida foydalanish, o‘tiriladigan boshqa joylarga yoki oyoq ostiga to‘shash yoki tasvirlash;

kiyim-kechak, dastro‘mol yoki ko‘rpa-to‘shak sifatida, buyumlarni saqlash va tashish uchun foydalanish;

bayroq tasviri tushirilgan belgilarni poyabzal, dastro‘mol, ko‘rpa-to‘shak, ichki kiyim-kechakka, sochiqlarga, qutilarga (o‘rovlarga), bir marta foydalanish va tashlab yuborish uchun mo‘ljallangan buyumlarga bosib chiqarish yoki uning tasvirini boshqacha tarzda tushirish;

bayroq va uning tasviri tushirilgan belgilardan odob-axloq qoidalari va jamiyatda yurish-turish qoidalariga zid ravishda foydalanish mumkin emasligi belgilandi.

Bugun milliy bayrog‘imiz davlat idora va muassasalari, o‘quv yurtlari, O‘zbekiston a‘zo bo‘lgan xalqaro tashkilotlar, chet ellardagi elchixona va doimiy vakolatxonalarimiz peshtoqida hilpirab turibdi.

Xalqaro sport bellashuvlarida g‘alaba qozongan sportchilarimiz sharafiga yurtimiz bayrog‘i baland ko‘tarilgan lahzada har birimiz cheksiz hayajonga tushamiz, hech kimdan kam emasligimizdan g‘ururlanamiz.

Bayrog‘imizning baland-baland hilpirashi yurtimizning obro‘-nufuzi yuksakligidan dalolatdir. Shunday ekan, sarbaland qaddimiz va qadrimiz timsolini hamisha e‘zozlaylik va boshimiz uzra baland ko‘taraylik!

**Dilmurod AHMEDOV,**  
Namangan viloyat adliya  
boshqarmasi boshlig‘i

## 2 JARAYON

# KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQLARI



**HUQUQLAR, erkinliklar va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish va ularning buzilishi oqibatlarini bartaraf etish insonning asosiy huquqlaridan bo'lib, konstitutsiya darajasida kafolatlanadi.**

Shu o'rinda ko'plab xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida ushbu huquqning konstitutsiyaviy mustahkamlanganini ko'rish mumkin. Masalan, (Sloveniya Konstitutsiyasining 14-moddasi to'rtinchi qismi, Turkiya Konstitutsiyasining 40-moddasi, Chexiya Konstitutsiyasining 4-moddasi). Bir qancha mamlakatlarning ta'sis hujjatlarida odil sudlovdan foydalanish erkinligi va ushbu sohada har qanday cheklovning taqiqlanishiga (Ruminiya Konstitutsiyasining 21-moddasi, Lyuksemburg Konstitutsiyasining 13-moddasi), huquq va erkinliklarni himoya qilish borasidagi ishlar ustuvor va shoshilinch tartibda ko'rib chiqilishiga (Ispaniya Konstitutsiyasining 24-moddasi, Shimoliy Makedoniya Konstitutsiyasining 50-moddasi 1-qismi, Andorra Konstitutsiyasining 41-moddasi) alohida urg'u berilgan. Portugaliyada ishlarni ustuvor tartibda ko'rib chiqish va sud jarayonini tezlik bilan o'tkazish insonning shaxsiy huquq va erkinliklari buzilgan yoki buzilishi xavfi tug'ilgan taqdirda ular sud tomonidan samarali va o'z vaqtida himoya qilinishining kafolati hisoblanadi (Konstitutsiya 20-moddasining 5-qismi). Bu mamlakatda hech kim mablag' yetishmagani bois odil sudlovdan foydalanish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas (20-moddaning birinchi qismi).

Bir qancha asosiy qonunlarda insonning asosiy huquq va erkinliklariga taalluqli davlat boshqaruvi qarorlarining sud tomonidan tekshirilishini sud vakolatlaridan chiqarishga (Slovakiya Konstitutsiyasining 46-moddasi ikkinchi qismi) yoki shikoyat qilishning maxsus vositalari yoxud muayyan toifadagi hujjatlar bilan cheklashga (Italiya Konstitutsiyasining 113-moddasi ikkinchi qismi) yo'l qo'yilmasligi qayd etilgan. Italiya Konstitutsiyasida davlatning va jamoat muassasalarining mansabdor shaxslari hamda xizmatchilari jinoyat, fuqarolik va ma'muriy qonunlarga muvofiq, kimningdir huquqlarini buzgan xatti-harakatlari uchun bevosita javobgar bo'lishlari alohida qayd etilgan. Fuqarolik javobgarligi esa bunday hollarda davlatga ham, jamoat muassasalariga ham taalluqli bo'ladi (28-moddasi).

Xorijiy mamlakatlarda xabeas korpus tartib-taomili eng ko'p tarqalgan. U anglo-sakson huquq "oilasida" (tizimida) paydo bo'lgan bo'lib, "shaxsning ushlanish sabablaridan va buni qaysi davlat organi amalga oshirganidan qat'i nazar, o'zining ozodlikdan mahrum qilinishini noqonuniy deb topishni qat'iy talab qilgan har qanday shaxs, ozodlikdan mahrum qilinishi qonuniyligini sud tartibida tasdiqlashni talab qilib sud idorasida muhokama qilinish huquqini" ta'minlaydi. Bugunga kelib bunday tartib ko'p mamlakatlarda konstitutsiya darajasida ta'minlangan (Shveysariya Konstitutsiyasining 31-moddasi to'rtinchi qismi, Braziliya Konstitutsiyasining 5-moddasi, Peru Konstitutsiyasining 200-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqining o'ziga xos jihati shundaki, ushbu huquq ro'yobga chiqadigan konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarda asosiy rol majburiyatli tomon, ya'ni davlat o'ynaydi. Uning vazifalariga sud jarayoni ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini normativ hujjatlarda belgilab qo'yish, sud orqali himoya qilishning huquqiy tartibini mustahkamlash, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarini sud orqali himoya qilishdek konstitutsiyaviy huquq amalga oshirilishining kafolatlarini yaratishdir. Har kim o'z huquqlarini sudda samarali himoya qilishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarning yaratilishiga aynan davlat mas'uldir.

Sud himoyasida bo'lishdek konstitutsiyaviy huquqning o'ziga xosligi shundaki, biror ne'matdan foydalanish yoki uni muhofaza qilishga qaratilgan boshqa subyektiv huquqlardan farqli o'laroq, sud himoyasida bo'lishdek konstitutsiyaviy huquqning obyektini boshqa mustaqil subyektiv huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlar tashkil etadi.

Sud himoyasida bo'lishdan iborat konstitutsiyaviy huquq subyektiv huquqdir. U moddiy huquqlarning ham, protsessual huquqlarning ham xususiyatlarini o'zida birlashtirgani uchun uni aniq qilib na moddiy, na protsessual huquqqa kiritib bo'ladi. Chunki u ikkita talabni qo'yadi: biri — javobgarga qaratilgan va ayni vaqtda da'vo predmeti bo'lgan moddiy-huquqiy talab, ikkinchisi — huquqlarni himoya qilish bo'yicha sudga qaratilgan protsessual talabdir.

Demak, inson huquqlari va erkinliklarining bevosita amal qilishi va himoyalaniishi odil sudlov orqali ta'minlanadi, bu esa ularning amal qilishi va himoyalaniishining realligi va samaradorligi belgisidir.

**Behzodjon YUSUPOV,**  
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

**BUGUNGI kunda sun'iy intellekt rasm chizish, hikoya yozish, kuy bastalash va bir qancha xizmatlarni bajarmoqda. Shu bois, Prezidentimizning 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi bilan davlatimiz sun'iy intellektni joriy qilish yo'lida ilk qadam tashladi.**

Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish, sohada standartlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash mazkur yo'nalishda birinchi galdagi vazifalardandir. Shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlash hamda sun'iy intellektga asoslangan loyihalarni ishga tushirish uchun texnik infratuzilma yaratish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida mazkur yo'nalishdagi ustuvor loyihalarni amalga oshirish zarur. Qolaversa, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirishni ham kechiktirib bo'lmaydi.

Yuqoridagi qaror asosida bank-moliya sohasida firibgarliklarning oldini olish, foydalanuvchilarning to'lov qobiliyatini baholash, bozor tendensiyalarini prognoz qilish, soliq va bojxona tizimida yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish, shubhali boj-

## Sun'iy intellekt taraqqiyotda muhim ahamiyat kasb etadi

xona operatsiyalarini prognozlash hamda xavflarni boshqarish, sog'liqni saqlash sohasida esa kasalliklarni tashxislash, davolash usullarini belgilash, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish va bemorga oid ma'lumotlarni boshqarish muhim hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi sohasida hosildorlikni prognoz qilish, resurslarni boshqarish, ekinlar, parranda, baliq va chorva mollarini yetishtirish jarayonlarini monitoring qilish, energetika tizimida energiya resurslarini boshqarish, energiya ishlab chiqarish hamda taqsimlashni optimalashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish va ularga bo'lgan talabni



prognozlash lozim.

Bundan tashqari, qarorda raqamli davlat xizmatlarini ko'rsatishda foydalanuvchilarni masofadan turib biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) bo'yicha sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash, sohada nutqni aniqlash va sintezlash texnologiyalari, "tabiiy tilga ishlov berish" (LLM hamda NLP) kabi yo'nalishlarni rivojlantirish, yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida chat-botlar yaratish, ko'rsatiladigan xizmatlarni to'liq avtomatlashtirish va qisqa vaqt davomida sifatli xizmat ko'rsatishini yo'lga qo'yish belgilangan. Shu bilan birga, rejalashtirish,

prognozlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarining samaradorligini oshirish, davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, ularni taqdim etishda fuqarolar uchun qulayliklar yaratish, sun'iy intellekt va "katta ma'lumotlar" bilan ishlash uchun superkompyuter va "bulutli platformalar"ni rivojlantirish kabi imkoniyatlarni yaratish ilgari surilmoqda.

E'tirof etish kerak, respublikamizda sun'iy intellektdan foydalanishni rivojlantirish maqsadida Raqamli texnologiyalar vazirligi tuzilmasidagi "Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi" davlat muassasasi tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Ushbu Markaz tomonidan axborot tizimlari va dasturiy ta'minotlarning sun'iy intellekt texnologiyalari asosida yaratilganligi va bunday texnologiya qo'llanganligi ekspertizadan o'tkaziladi.

Umuman olganda, O'zbekiston dunyoning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) birinchi 50 ta o'rindagi davlatlar qatoriga kirishga intilmoqda. Buning uchun esa rivojlangan davlatlar bilan keng miqdordagi hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

**Bexro'z JO'RAYEV,**  
Sirdaryo tuman adliya bo'limi  
yuridik xizmat ko'rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti

YAKKASAROY tuman adliya bo'limi tomonidan M. Qurbonovning farzandi F. Salimovning tug'ilganlik faktini belgilashda amaliy yordam so'rab yo'llagan murojaati o'rganib chiqildi.

## TUG'ILGANLIK FAKTI BELGILANDI

O'rganish davomida, M. Qurbonovning farzandi 14 yoshga to'lgan bo'lsa-da, shu vaqtga qadar shaxsini tasdiqlovchi hech qanday hujjati yo'qligi, buning oqibatida ko'plab muammolarga duch kelayotgani aniqlandi.

Holat yuzasidan tuman adliya bo'limi tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirib, fuqarolik ishlari bo'yicha Yakkasaroy tumanlararo sudiga



F. Salimovning tug'ilganlik faktini belgilash to'g'risida ariza kiritildi.

Sudning hal qiluv qarori qabul qilinib, uning ijrosi yuzasidan tegishli FHDYo bo'limi tomonidan F. Salimovga tug'ilganlik haqida guvohnoma rasmiylashtirildi.

**Dilshod NURULLAEV,**  
Yakkasaroy tuman adliya bo'limi  
mas'ul xodimi

## 70 YOSHLI OTAXONGA GUVOHNOMA BERILDI



INSON hayotda turli muammolarga duch kelishi tabiiy. Bunga ko'p hollarda uning o'zi sababchi bo'ladi. E'tiborsizlik va o'z vaqtida amalga oshirilmagan ishlar yillar o'tib, fuqaroning turli ovoragarchiliklariga sabab bo'lishi mumkin.

Kosonsoy tumanidagi "Movarounnahr" mahallasida istiqomat qiluvchi Muhammadxon

Amonullayev tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limiga uzoq yillik muammosini ijobiy hal etishda amaliy yordam so'rab, murojaat qildi.

Murojaat o'rganilganda, 1955-yilda tug'ilgan fuqaroning tug'ilganlik guvohnomasi turli sabablarga ko'ra qayd etilmagani ma'lum bo'ldi.

Tuman FHDY bo'limi tomonidan fuqaroning arizasiga muvofiq tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvini tiklab, tug'ilganlik haqida guvohnoma rasmiylashtirildi.

Bu Namangan viloyat adliya boshqarmasi mas'ullari tomonidan o'tkazilayotgan sayyor qabullar, shuningdek, tuman, shahar adliya bo'limlari xodimlarining joylarda olib borayotgan targ'ibot tadbirlari ijobiy samara berayotganidan dalolat, albatta.

**Oylorxon AXUNOVA,**  
Kosonsoy tuman adliya bo'limi  
FHDY bo'limi mudiri

## HAMSHIRA

### ISHGA TIKLANDI

BO'STON tuman adliya bo'limiga tumanning "Bo'ston" mahallasida yashovchi G. Ahmadqulova ariza bilan murojaat qilib, tuman tibbiyot birlashmasining ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasida xona hamshirasi vazifasida ishlab kelsa-da, joriy yilning aprel oyidan buyon ish haqi olmayotganidan noroziligini bildirdi.

Aniqlanishicha, fuqaro G. Ahmadqulova tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'ining 2024-yil 19-apreldagi buyrug'iga asosan KTMPga 0,5 shtat birligida xona hamshirasi vazifasiga asosiy ish joyi bo'yicha ishga qabul qilingan. Ishga qabul qilingandan to'g'ri kunga qadar G. Ahmadqulova bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinmagan, u shu kunga qadar 0,5 shtat birligidagi o'z xizmat vazifalarini bajarib kelayotgani ma'lum bo'ldi. Biroq, joriy yilning aprel oyidan buyon ish beruvchi tomonidan G. Ahmadqulovning 0,5 shtat birligidagi ish o'rni ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasining shtatlar jadvalida ko'rsatilmagani vaji bilan, unga ish haqi to'lanmay kelingani aniqlandi.



Shunga ko'ra, fuqaro G. Ahmadqulovning manfaatini ko'zlab, tuman tibbiyot birlashmasiga nisbatan ish joyiga tiklash va majburiy progul pullarini undirish to'g'risida fuqarolik ishlari bo'yicha Bo'ston tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sudning 2024-yil 10-oktabrdagi hal qiluv qaroriga ko'ra, fuqaro G. Ahmadqulovani 0,5 stavka shtat birligida xona hamshirasi lavozimi bo'yicha ish bilan ta'minlash majburiyati yuklanib, uning foydasiga 5 million 817 ming 738 so'm majburiy progul uchun ish haqi va bir million so'm ma'naviy zarar undirib berildi.

**Isomiddin ERGASHEV,**  
Bo'ston tuman adliya bo'limi boshlig'i

### HUQUQIY DAYJEST

## BEPUL YO'LLANMA OLISHINGIZ MUMKIN



O'ZBEKISTON Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martda qabul qilingan "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga binoan mahalladagi hokim yordamchisining yozma tavsiyanomasi asosida mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolarning O'zbekiston Respublikasida ular bilan birga istiqomat qiluvchi pensiya yoshiga etgan yoki I va II guruh nogironligi bo'lgan oila a'zolariga har yili kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriy va profilaktik davolanish muassasalariga bir martalik bepul yo'llanma berish belgilangan.

## JAVOBGARLIK BELGILANGAN

Bugungi sovuq kunlarda xonadonlarda energiya resurslariga bo'lgan talab ortadi. Mazkur jarayonda ayrim yurtdoshlarimiz elektr energiyasi yoki tabiiy gazdan o'zboshimchalik bilan yoxud ko'r-ko'rona foydalanishlari ham sir emas. Ammo buning uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 101-moddasi (Elektr, issiqlik energiyasi, gazdan foydalanish qoidalarini buzish) va Jinoyat kodeksining 185<sup>2</sup>-moddasi (Elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish)ga muvofiq, tegishli javobgarlik belgilanganligini unutmaslik kerak.

Darvoqe, qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## QISQARTIRILGAN ISH VAQTI



Amaldagi qonunlarimizda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun bir qator imtiyozlar o'z aksini topgan. Xususan, Mehnat kodeksining 427-moddasiga binoan, I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligi haftasiga o'ttiz olti soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi. Ular uchun kunlik ishning (smenaning) davomiyligi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining tavsiyalariga muvofiq belgilanadi, lekin olti kunlik ish haftasida olti soatdan, besh kunlik ish haftasida etti soatu o'ttiz daqiqadan ortib ketmasligi kerak.

@huquqiyaxborot

## 4 “MADAD” – MASLAHATCHI



Savollarga “Madad” NNT  
bosh mutaxassisi

**Abror EZOʻXONOV**  
javob berdi



### HISOBLAGICHNI OʻZ HISOBIMIZDAN OʻRNATAMIZMI?

– **BIR hovlida 3 ta oila birgalikda yashaymiz. Oilamizga alohida hisoblagich oʻrnatish uchun elektr tarmoqlari korxonasiga murojaat qilganimda, ular hisoblagich oʻz hisobimizdan oʻrnatilishini aytishdi. Shu qonundan toʻgʻrimi?**

– Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi “Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Elektr energiyasidan foydalanish” qoidalarining 62-bandiga koʻra, nazorat hisoblagichlari alohida sexlarda, koʻp energiya sarflaydigan agregatlarda, texnologik liniyalarida, binolarda, bir necha oila yashaydigan xonadonlarda oʻz hisobidan oʻrnatiladi.

Shunga asosan xonadoningizdagi har bir oila elektr hisoblagichni oʻz hisobidan sotib olishi lozim.

### KOMPENSATSIYA BERILADIMI?

– **II guruh nogironiman. Yaqinda onlayn-auksion orqali yer uchastkasini sotib oldim. Eshitishimcha, nogironligi boʻlgan shaxslarning onlayn-auksion orqali yer uchastkasini sotib olgan pullari davlat tomonidan kompensatsiya qilib berilar ekan. Shu haqda maʼlumot bersangiz.**

– Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi qarori bilan tasdiqlangan “Nogironligi boʻlgan shaxsning va tarkibida nogironligi boʻlgan shaxs bor oilaning elektron onlayn-auksion orqali yer uchastkasini sotib olish bilan bogʻliq xarajatlarini qoplab berish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga asosan nogironligi boʻlgan shaxsning va tarkibida nogironligi boʻlgan shaxs

bor oilaning elektron onlayn-auksion orqali yer uchastkasini sotib olish bilan bogʻliq xarajatlari qoplab beriladi.

Buning uchun fuqaro onlayn-auksion orqali yer uchastkasini sotib olgandan soʻng 3 oy ichida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlariga yoki YIDXP orqali onlayn ariza bilan murojaat qiladi. Ariza komissiya tomonidan oʻrganib chiqiladi.

Bir martalik toʻlovni amalga oshirish uchun imtiyozli toifadagi shaxslar quyidagi mezonlarga muvofiq kelishi kerak:

- oxirgi 12 oy davomida oʻzi yoki oila aʼzolari nomida yashash uchun moʻljallangan turar joyi yoki yer uchastkasi mavjud boʻlmasligi;
- yer uchastkasi oxirgi uch oy ichida auksion orqali xarid qilingan va Oʻzbekiston Respublikasi hududida boʻlishi;
- qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan ekspertiza natijalari boʻyicha nogironligi boʻlgan shaxs deb topilgan, shuningdek, tegishliligi boʻyicha “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ning birida turgan boʻlishi.

Elektron onlayn-auksion orqali yer uchastkasini sotib olish xarajatlaridan kelib chiqqan holda, bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha miqdorda bir martalik moddiy yordam ajratiladi.

### IMTIYOZ BORMI?

– **Farzandim xususiy maktabda oʻqiydi. Maktab toʻlovini toʻlashda menga daromad soligʻidan imtiyoz bormi?**

– Soliq kodeksining 378-moddasi 16-bandiga koʻra, soliq toʻlovchining soliq solinishi lozim boʻlgan ish haqi va boshqa daromadlaridan farzand-

lariga nodavlat maktablar koʻrsatadigan taʼlimga oid xizmatlar uchun ota-ona (farzandlikka oluvchilar) tomonidan har bir farzand uchun toʻlanadigan oyiga 3 million soʻmgacha boʻlgan toʻlovlardan daromad soligʻi olinmaydi.

Shunga asosan har oyda farzandingiz nodavlat maktabda oʻqiganligi uchun toʻlanadigan pulning 3 million soʻmgacha daromad soligʻi undirilmaydi.

### XORIJGA CHIQISH TARTIBI QANDAY?

– **Qizim Koreya Respublikasidagi oliygohga oʻqishga kirdi. Lekin hali 17 yoshga toʻlmagan. Uning xorijga chiqish uchun pasporti bor. Qizim oʻqishga ketish uchun davlatimizdan chiqayotganida mening nazoratimsiz xorijga keta oladimi? Voyaga yetmaganlarning xorijga chiqish tartibi qanday?**

– Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda “Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish tizimini yaratish hamda Oʻzbekiston Respublikasi biometrik pasport tizimini modernizatsiya qilishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomning 22-bandiga koʻra, 15 yoshdan 18 yoshgacha boʻlgan fuqarolar ota-onalar, vasiylar (homiylar)ning voyaga yetmagan shaxsning mustaqil ravishda xorijga chiqishiga notarial tasdiqlangan roziligi boʻlgan taqdirda, xorijga kuzatuvchisiz chiqishi mumkin. Ota-onalar, vasiylar (homiylar)ning voyaga yetmagan shaxsning mustaqil ravishda xorijga chiqishiga roziligi,

ular bevosita maʼlumotlarni yigʻish punktiga yoki YIDXP orqali murojaat qilgan taqdirda, notarial tasdiqlanishi talab etilmaydi. Soʻrovnomaga YIDXP orqali yuborilganda ota-onalar yoki vasiylar (homiylar)ning roziligi faqat elektron raqamli imzoni qoʻllash orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagi Nizomga asosan farzandingiz hamrohsiz chet elga chiqishiga siz bilan turmush oʻrtogʻingiz notarial tasdiqlangan rozilik bersangiz, u Koreyaga oʻqishga oʻzi ketishi mumkin.

### ATTESTATSIYADAN QANDAY OʻTILADI?

– **Maktabda oʻqituvchi boʻlib ishlayman. Ishga kirganimga 3 yil toʻldi. Shu yil kuzda menga attestatsiyadan oʻtish majburiyatini aytishdi. Attestatsiyadan oʻtishning qonuniy tartibini tushuntirib bersangiz?**

– Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrda “Maktabgacha, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, professional va maktabdan tashqari taʼlim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan oʻtkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 4-bandiga koʻra, pedagog kadrlar har besh yilda bir marta navbatdagi majburiy attestatsiyadan oʻtkaziladi.

Ilgari attestatsiyadan oʻtmagan ishga yangi qabul qilingan pedagog kadrlarga yoki oliy taʼlim tashkilotlarini bitirib birinchi bor ishga kirgan pedagog kadrlar kasbiy faoliyatiga uch yil toʻlgandan soʻng navbatdagi majburiy attestatsiyadan oʻtkaziladi.

Shunga asosan ishga kirganingizga 3 yil toʻlgan boʻlsa, siz majburiy attestatsiyadan oʻtasiz.

## MEHNAT TAʼTILI

### BERISHADIMI?



– **ISHGA kirganimga bir yil vaqt boʻlgani yoʻq. Lekin ish joyimni almashtirmoqchiman. Sababi, shtatlar qisqarayotgani uchun men bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi mumkinligini aytishdi. Shunday holatda menga mehnat taʼtili berishadimi?**

**Mahmuda JABBOROVA,**  
Andijon viloyati

– Agar xodim ishga kirgunga qadar taʼtillar jadvali tasdiqlanib boʻlgan boʻlsa, Mehnat kodeksining 227-moddasiga koʻra, birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat taʼtilidan foydalanish huquqi xodimda u ushbu ish beruvchida uzluksiz ishlagan olti oy

oʻtganidan keyin yuzaga keladi. Mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga koʻra, xodimga ishlagan olti oy oʻtguniga qadar ham mehnat taʼtili berilishi mumkin.

Demak, xodim birinchi ish yili uchun taʼtil olayotgan boʻlsa, xodimda taʼtil olish huquqi boʻlsa-da, ish beruvchining roziligi talab etiladi. Yaʼni, ish beruvchi uchun majburiyat emas, taraflar oʻrtasidagi kelishuv boʻlishi zarur.

Mehnat kodeksining 235-moddasiga asosan jamoa shartnomasida, boshqa ichki hujjatlarda, mehnat shartnomasida yoki xodim va ish beruvchi oʻrtasidagi kelishuvga koʻra, mehnat shartnomasini bekor qilish chogʻida (bundan mehnat shartnomasi bekor qilish chogʻida (bundan mehnat shartnomasi bekor qilish chogʻida) xodimning aybli harakatlari (harakatsizligi) uchun bekor qilingan hollar mustasno) foydalanilmagan har yilgi mehnat taʼtillarini keyinchalik mehnatga oid munosabatlarni tugatgan holda xodimning yozma arizasi asosida berish nazarda tutilishi mumkin.

Mehnat shartnomasini uning muddati tugashi munosabati bilan bekor qilish chogʻida keyinchalik mehnat shartnomasini bekor qilgan holdagi taʼtil har yilgi mehnat taʼtilining vaqti ushbu shartnoma

muddatining chegarasidan toʻliq yoki qisman chiqib ketganda ham berilishi mumkin. Bunda har yilgi mehnat taʼtilining oxirgi kuni mehnat shartnomasi bekor qilinadigan kun hisoblanadi.

Xodimning tashabbusiga koʻra, keyinchalik mehnat shartnomasini bekor qilgan holda har yilgi mehnat taʼtilini berish chogʻida ushbu xodim mehnat shartnomasini bekor qilish toʻgʻrisidagi arizasini oʻzining mehnat taʼtili boshlanadigan kunga qadar chaqirib olish huquqiga ega.

Demak, yuqoridagilarga koʻra toʻrtta holatda taʼtillardan foydalanish mumkin. Ular:

- jamoa shartnomasida belgilangan boʻlsa;
- boshqa ichki hujjatlar (masalan, taʼtillar jadvali va ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qoʻmitasi bilan kelishuvga koʻra qabul qilinadigan ichki hujjatlar)da;
- mehnat shartnomasida;
- xodim va ish beruvchi oʻrtasidagi kelishuvga koʻra.

**Sardorbek NISHONOV,**  
Marhamat tuman adliya boʻlimi  
bosh maslahatchisi



## HAYDOVCHI UCHUN QANDAY HARAKATLAR TAQIQLANADI?



## Ijtimoiy faollikni oshirish =

### BOSH MEZON

DAVLAT granti ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari, shuningdek, jamoat fondlarining mablag'lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ularning buyurtmalari bo'yicha tanlov asosida beriladigan pul mablag'lari va moddiy resurslardir.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-noyabrdagi "Mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari tashkil etilishi belgilangan.

Markazlarda bitta ijtimoiy loyiha doirasida 20 nafargacha xotin-qizlarning doimiy bandligini ta'minlash maqsadida bandligi ta'minlanadigan har bir nafar ishsiz xotin-qiz uchun tadbirkorlarga 3 million so'mgacha davlat granti ajratiladi.

Davlat granti quyidagi toifadagi xotin-qizlarni kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qitish, ularning bandligini ta'minlash hamda tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga ko'maklashishga qaratilgan loyihalar uchun ajratiladi:

- ✓ "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga, shuningdek, "Ayollar daftari"ga kiritilgan;
- ✓ ishsiz, ayniqsa, qishloq joylarda bola tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan;
- ✓ xorijiy mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan;
- ✓ nogironligi bo'lgan mehnatga layoqatli ishsiz;
- ✓ norasmiy bandlikni qisqartirish maqsadida kundalik mehnat faoliyati bilan shug'ullanib, daromad topayotgan;
- ✓ odam savdosidan hamda tazyiq va zo'rvonlikdan jabr ko'rgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushib qolgan;
- ✓ umumiy o'rta va professional ta'lim muassasalarini tugatgan,
- ✓ OTMga o'qishga kira olmagan yoki oliy ta'limda o'qish uchun imkoniyati bo'lmagan ishsiz xotin-qizlar;
- ✓ muqaddam jinoiy javobgarlikka tortilgan, profilaktik ro'yxatga olingan, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytib kelgan xotin-qizlar.

Qonunchilikka ko'ra, mablag' har bir nafar bandligi ta'minlanadigan ishsiz xotin-qiz uchun 3 million so'mdan oshmagan miqdorda Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratiladi.

Hujjatda "ishsiz, ayniqsa, qishloq joylarda bola tarbiyasi bilan uyda o'tirib qolgan ehtiyojmand ayollar, shuningdek, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bandligini ta'minlash maqsadida mahallalarda tikuvchilik, qandolatchilik, pazandachilik kabi yo'nalishlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatini yo'lga qo'yish" ko'zda tutilgan.

**Muhabbat XOJAXMETOVA,**  
Nukus shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti

PREZIDENTIMIZ tomonidan 2024-yil 10-iyun kuni imzolangan "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni sudlar faoliyatida ochiqlik, shaffoflikni ta'minlash bilan bir qatorda, fuqaro va tadbirkorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirdi.

## TERGOV SUDYALARI ISH BOSHLAYDI



Farmonga muvofiq, Sudyalari oliy kengashiga Oliy sud bilan birgalikda 2025-yil 1-yanvariga qadar tergov sudyasi lavozimi joriy etiladigan sudlarni yuqori malakali va mas'uliyatli kadrlar bilan ta'minlash vazifasi yuklatildi.

Shunga ko'ra, 2025-yil 1-yanvardan boshlab jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarida ish boshlaydigan tergov sudyalari jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish masalalari - qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish, pasportning amal qilishini to'xtatib turish, murdani ekskumatsiya qilish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash, ushlab turish muddatini 48 soatga qadar uzaytirish hamda prokurorning guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatmalarini oldindan mustahkamlash to'g'risidagi iltimosnomalarini ko'rib chiqadi.

Shuningdek, tergov sudyalariga ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni ko'rib chiqish vakolati ham yuklatilmoqda. Buning natijasida jinoyat ishlari bo'yicha birinchi instansiya sudi sudyalari o'rtasida ish hajmi mutanosibligi ta'minlanadi.

Jumladan, bu jinoyat ishlarini ko'rish jarayonida ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlarni sinchkovlik bilan to'liq va xolisona tekshirib chiqish, sudlanuvchilarning barcha vajlarini tekshirish va taraflar tomonidan keltirilgan iltimosnomalarni batafsil ko'rib chiqishga mustahkam huquqiy zamin yaratadi.

Farmonga ko'ra, tergov sudyasi o'z faoliyatini mustaqil amalga oshirib, faqat qonunga bo'ysunishi hamda tergov sudyasiga odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday vazifalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmasligi belgilandi.

Sud-huquq tizimidagi bu muhim o'zgartirishlar fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning ish yuklamasini kamaytirish hamda sudyalarning jinoyat ishlarini ko'rib chiqish jarayonlarida qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

**Ma'rifat MELIXANOVA,**  
Yangi Namangan tuman  
adliya bo'limi yuridik xizmat  
ko'rsatish bo'limi boshlig'i

## 6 MINBAR

**MA'LUMKI, prokuratura, avvalambor, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini muhofaza qilish bilan birga, ayni paytda jamiyat va davlat manfaatlarini ham himoya qiladi. Aksincha, davlat va jamiyat manfaatlarini ta'minlamay turib, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ta'minlab bo'lmaydi.**

Prokurorlarning huquqni himoya qilish faoliyati hokimiyatning turli tarmoqlariga mansub bo'lgan tekshiruv organlari faoliyati jihatlariga o'xshab ketadi. Lekin bu faoliyat ko'proq sud hokimiyatining funksiyalari bilan uyg'unroqdir. Prokuratura, xuddi sud kabi, qonunlarning ustunligini, qonuniylikning birligi va mustahkamlanishini, shaxs va davlat manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadini ko'zlaydi. U ko'pgina masalalarni hal etishda xuddi sud kabi fuqarolik-protsessual va jinoyat-protsessual va boshqa qonun hujjatlarida aniq belgilangan doirada faoliyat ko'rsatadi.

Prokuratura organlari tizimining qat'iy markazlashgan prinsip asosida tuzilishi (quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchi prokurorlarga va Bosh prokurorga bevosita bo'ysunishi) prokuraturaning afzalligi bo'lib, bu barcha prokurorlarning yagona yo'nalishda harakat qilishiga, qonuniylikni mustahkamlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish borasida yuzaga kelgan muammolarni kelishgan holda tezkorlik bilan hal qilish, nazorat faoliyatida esa davlatning boshqa organlari va mansabdor shaxslariga bog'liq bo'lmaslik imkonini beradi. Shuning uchun ham prokuratura qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyatlarga ta'sir etish va o'zaro hamkorlik qilish uchun amaliy vositalarga ega bo'lgan maxsus davlat organidir.

# PROKURATURA ORGANLARI – inson huquqlari himoyachisi



Prokuraturaning amaliy faoliyati uning tiyib turish va muvozanatlash tizimining elementlaridan biri sifatidagi muhim funksiyani

bajarishiga, hokimiyat tarmoqlarini muvozanatlashga imkon beradi.

Mamlakatimizda prokuratura hokimiyatning qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qiluvchi organi sifatida tashkil qilingan. Prokuratura qonunlarning ijrosini nazorat qilish bilan birga jinoyat ta'qib va sudda ishtirok etish bilan ham shug'ullanuvchi davlat organi bo'lib shakllangan.

Hozirgi paytda prokuraturaning davlat-huquqiy institutlar tizimidagi o'rnini uning qonun ustuvorligini, qonuniylikning yagonaligi va mustahkamlanishini, inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, jamiyat va davlatning qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarining himoyalashini ta'minlaydigan organ sifatidagi funksiyalari bilan aniqlanadi.

Prokurorlik nazoratining konstitutsiyaviy tabiati shundaki, bu organ fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ta'minlash institutidir. U O'zbekistondagi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi, uning madaniyati va an'analari, tegishli "tiyib turish va muvozanatlash" tizimidan kelib chiqib, davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari bilan munosabatda alohida o'rin tutadi.

Prokurorlik faoliyati davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy turlaridan biridir. Prokurorlik hokimiyatini amalga oshirish shakllariga prokurorlarning Konstitutsiyaga rioya etishi va mamlakat hududida amal qiluvchi qonunlar ijrosini nazorat qilishi, shuningdek, jinoyat ta'qib kiradi. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq hamda erkinliklari kafolatlanishining ijtimoiy-huquqiy mexanizmida prokurorlik hokimiyati muhim o'rin tutadi.

**Umid QAYUMOV,**  
Toshkent viloyat prokuraturasi  
bo'lim katta prokurori

**SPORT musobaqalari bilan bog'liq korrupsiyaning xavfi davlat va jamiyat uchun yetkazilgan moddiy zarar va ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlarga asoslangan sport musobaqalarining nufuziga putur yetkazish bilan belgilanadi. Mustaqil hisob-kitoblarga ko'ra, dunyoda 800 milliondan 1,2 milliardgacha odam havaskor yoki professional darajada sport bilan shug'ullanadi. Sportdan tushadigan yillik daromad esa 145 milliard AQSH dollariga baholanmoqda.**

# Sportdagi poraxo'rlikni yangi hodisa deb bo'lmaydi



Sport sohasidagi poraxo'rlikni aslida unchalik yangi hodisa deb bo'lmaydi. Chunki qadimgi Olimpiyadagi musobaqalarda ba'zan firibgarlik, poraxo'rlik va hatto doping ham uchrab turgan. Bu haqda yunon geografi va sayohatchisi Pavsaniy (mil. avv. 776-yildan), shuningdek, Karl-Vilgelm Vebering qadimgi Olimpiya o'yinlarida korrupsiya (poraxo'rlik) uchrab turganligini o'zlarining asarlarida bayon qilgan.

Tarixiy manbalarda fessaliyalik bokschi Yevpol (mil. avv. 388-yilda) Olimpiya o'yinlaridagi jangovar turnirda g'olib bo'lish uchun raqiblariga pora bergani keltirilgan. Shuningdek, afinalik sportchi Kallipos 112-Olimpiya o'yinlarida (mil. avv. 332-y.) g'olib bo'lish uchun o'z raqiblariga pora berganligi uchun javobgarlikka tortilgani keltirilgan.

Zamonaviy tadqiqotlarni o'rganish asosida sport sohasidagi eng ko'p tarqalgan huquqbuzarliklarni uch guruhga ajratish mumkin. Birinchisi sport musobaqalari paytida jamoat

tartibini buzishga qaratilgan huquqbuzarliklar bo'lsa, ikkinchisi sport sohasidagi korrupsiya, uchinchisi sportda doping bilan bog'liq huquqbuzarliklardir. Sportdagi korrupsiya, musobaqalarni manipulyatsiya qilish, doping va zo'ravonlik (har qanday turdagi) sport uchun asosiy tahdidlardan biridir.

Sportning korrupsiya xavfi eng ko'p yuqori bo'lgan sohasi bu – so'zsiz futbol bo'lib, bu haqda FIFA eksperti janob Gautier Aubert futbol korrupsiya xavfi yuqori sohadir, chunki o'yinning keng geografiyasi va kompaniyalaridagi katta garovlar tikish tufayli bu yerda son-sanoqsiz manipulyatsiyalar bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaydi.

Aksariyat xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida sportdagi poraxo'rlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Italiya va AQSHda sportdagi korrupsiya maxsus qonun bilan tartibga solingan bo'lsa, Buyuk Britaniyada esa, umumiy firibgarlik yoki poraxo'rlikdan ajratilmagan

holda javobgarlik nazarda tutilgan. GFR, Fransiya, Armaniston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasi va Ozarbayjon JKda sport sohasidagi poraxo'rlikni nazarda tutuvchi yoki sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Sportdagi poraxo'rlik jinoyati predmeti borasida gap ketganda, Qirg'iziston va Rossiya Federatsiyasida faqat moddiy yoki mulkiy xizmatlar pora predmeti sifatida tan olingan bo'lsa, Italiya, GFR, Fransiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Moldovada esa har qanday noqonuniy afzalliklar pora predmeti sifatida tan olingan. Ozarbayjon Jinoyat kodeksida esa mulkiy yoki boshqacha imtiyozlar pora predmeti bo'lishi mumkinligi keltirilgan.

Sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta'sir ko'rsatish jinoyatini sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilish Rossiya, Ozarbayjon, Gruziya, Moldova Jinoyat kodekslarida 6 yilgacha, Armanis-

ton, Fransiya Jinoyat kodeksida 5 yilgacha, Germaniya Jinoyat kodeksida 3 yilgacha belgilangan. Bu borada Fransiya, Armaniston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon jinoyat qonunchiligida sportdagi poraxo'rlik uchun jarima, ozodlikdan mahrum qilish bilan bir qatorda, muayyan huquqdan mahrum qilish jazolari nazarda tutilgan.

Bugungi kunda aksariyat davlatlar sportdagi poraxo'rlikning oldini olish uchun jinoyat qonunchiligida javobgarlik belgilaganini hamda xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ham bu kabi javobgarlikni belgilashga ehtiyoj mavjud edi. Shu bois, sport sohasida korrupsiyaning oldini olish maqsadida 2024-yil 4-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi ham 214<sup>1</sup> va 214<sup>2</sup>-moddalar bilan to'ldirildi.

**Davlat OBLAKULOV,**  
Huquqni muhofaza qilish  
Akademiyasi o'qituvchisi

**BOLAGA nisbatan tazyiq va zo'rvonlik jamiyatning eng og'riqli muammolaridan biridir. Bu esa bolaning butun hayotiga, uning jismoniy, psixologik, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etib, bolaning akademik ko'rsatkichlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.**

## BOLAGA NISBATAN ZO'RAVONLIK buning uchun javobgarlik belgilandi



Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'ylab har yili 1 milliarddan ortiq bola jismoniy, ruhiy yoki jinsiy zo'rvonlikka duchor bo'ladi. Yaqinda YUNICEF hamda Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili tomonidan tayyorlangan O'zbekistonda bolalar va o'smirlar holatining tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda 1 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan har uch boladan ikkitasi (62 foizi) zo'rvon tarbiya usullariga (jismoniy jazo yoki psixologik tajovuz) duchor bo'lgan. 15-19 yoshli qizlarning 33 foizi esa erlar o'z xotinini kaltaklash huquqiga ega, deb hisoblashadi. Shuningdek, O'zbekistonda so'nggi 3 yilda 2 mingdan ortiq fuqarolar sudlar tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan. Qolaversa, ularning 86 foizi ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortgani uchun javobgarlikka tortilgan. Mazkur statistik ma'lumotlar mamlakatimizda bolalarni har tomonlama huquqiy himoya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Tan olish kerak, bugungi kunda huquqni qo'llash amaliyotida bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq qator muammolar mavjud. Xususan, shu kunga qadar bolalarga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'rvonlik tarzidagi ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoiy qilmishlar sodir etganlik uchun javobgarlikning belgilanmagani bolalarning har tomonlama huquqiy himoyasi mustahkam emasligini ko'rsatayotgandi. Binobarin, Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 21-oktabr kuni imzolangan "Oilaviy (maishiy) zo'rvonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonuni ana shu bo'shliqni to'ldirdi. Mazkur qonun asosida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Hujjat bilan Jinoyat kodeksining "Oilaviy (maishiy) zo'rvonlik" deb nomlangan 126<sup>1</sup>-moddasiga qo'shimcha kiritildi. Amaldagi normada er-xotin yoki oilada birga yashovchi boshqa shaxslarga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'rvonlik qilganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa-da, bu harakatlarni bolaga nisbatan sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan edi.

Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksining 583-moddasi "Oilaviy (maishiy) zo'rvonlik bilan bog'liq ishlar yuzasidan yarashuv to'g'risidagi ariza sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirishidan oldin berilishi mumkin" mazmunidagi ikkinchi qism bilan to'ldirildi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ham bolaga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'rvonlik qilganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Mazkur hujjatni mamlakatimizda bolalarning farovonligini ta'minlash va zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish yo'lidagi muhim qadam, deyish mumkin.

**Feruz MIRO'KTAMOVA,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti

## Dam olish kuni qachon KO'CHIRILADI?



**DAM olish vaqti xodim mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'lgan va o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin bo'lgan vaqtdir. Ish kuni (smena) davomidagi tanaffuslar, har kungi (smenalar oralig'idagi) dam olish, dam olish kunlari (har haftalik uzluksiz dam olish), ishlanmaydigan bayram kunlari, har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillari dam olish vaqtining turlari sanaladi. Xodimning istagiga ko'ra dam olish kunida yoki ishlanmaydigan bayram kunida ishlaganlik uchun kompensatsiya sifatida taqdim etiladigan ishdan bo'sh bo'lgan qo'shimcha kunlar, shuningdek, qon va uning tarkibiy qismlari topshirilgan har bir kundan keyin donorlarga beriladigan dam olish kuni ham shular jumlasidandir.**

Ish kuni (smena) davomida xodimga dam olish va ovqatlanish uchun davomiyligi ko'pi bilan ikki soat va kamida o'ttiz daqiqa bo'lgan, ish vaqtiga kiritilmaydigan tanaffus berilishi kerak. Ichki mehnat tartibi qoidalarida yoki mehnat shartnomasida, agar xodim uchun belgilangan kunlik ishning (smenaning) davomiyligi to'rt soatdan oshmasa, unga mazkur tanaffus berilmasligi nazarda tutilishi mumkin. Dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus berish vaqti va uning aniq davomiyligi ichki mehnat tartibi qoidalarida yoki xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra belgilanadi.

Xodimlarga ish kuni davomida dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusdan tashqari qo'shimcha tanaffuslar ham beriladi. Xususan, yilning issiq yoki sovuq mavsumida ochiq havoda yoxud sovitilmaydigan yoki isitilmaydigan yopiq xonalarda ishlaydigan, shuningdek, yuk o'rish-tushirish ishlarida band bo'lgan shaxslar uchun maxsus tanaffuslar. Ish beruvchi ititish, sovitish uchun asbob-uskunalar bilan jihozlangan va xodimlarning dam olishi uchun yaroqli bo'lgan

xonalarni ta'minlashi shart. Bunday tanaffuslar taqdim etiladigan ishlarining ro'yxati, harorat ko'rsatkichlari, shuningdek, ushbu tanaffuslarning davriyligi va davomiyligi ish o'rinlarini mehnat sharoitlari hamda asbob-uskunalarining jarohatlash xavfi bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish asosida belgilanadi. Qolaversa, bolani ovqatlantirish uchun sarflanadigan vaqt ham qo'shimcha tanaffuslar sirasiga kiradi.

2022-yil 28-oktabrda yangi tahrirda qabul qilingan Mehnat kodeksiga ko'ra, dam olish kuni ishlanmaydigan bayram kuniga to'g'ri kelgan taqdirda, dam olish kuni bayramdan keyingi ish kuniga ko'chiriladi. Masalan, joriy yilda 1-sentabr – Mustaqillik kuni yakshanba kunga to'g'ri keldi. Shu bois dam olish kuni 2-sentabr dushanbaga ko'chirildi. Yoki 8-dekabr – Konstitutsiya kuni ham yakshanbaga to'g'ri kelmoqda. Natijada dam olish kuni 9-dekabr dushanbaga ko'chiriladi.

**Azamat NABIJONOV,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

### E'LONLAR

\*\*\*

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan joriy yilning 6-noyabr kuni Qarshi shahar "Madad - maslahatchi" advokatlar hay'ati advokati Rajabova Mavluda Mahmudovnaning vafot etganligi munosabati bilan unga viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2023-yil 10-oktabrda berilgan L-7066149-reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda advokatlik maqomi tugatildi.

\*\*\*

Advokat Soliyev Oybek Xayitboyevich advokatlik litsenziyasining amal qilishini tugatish to'g'risida ariza bilan murojaat etganligi sababali unga 2023-yil 23-noyabrda berilgan L-70663417 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 4-noyabrda 376-um-son buyrug'iga asosan tugatildi.

\*\*\*

Xorazm viloyat adliya boshqarmasining tegishli buyrug'ini bilan "Bunyodbek Nurbek Himoya" advokatlik byurosi advokati Otajonov Bunyod Kadamovichga adliya boshqarmasi tomonidan 2022-yil 30-avgust kuni HZ N°000212-raqami bilan berilgan Litsenziya axborot tizimi orqali 2023-yil 1-noyabr kuni L-70662057 raqami bilan qayta rasmiylashtirilib, "Ma'muriy va jinoiy sud ishlarini yuritish" ixtisosligi bo'yicha berilgan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi tiklandi.

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi jamoasi markazning "Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy, ilmiy jurnali birlashgan tahririyati mas'ul kotibi Shavkat Yodgorovga opasi

**Mastura YODGOROVA**ning vafot etganligi munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

## 8 BILASIZMI?



### POYEZDDA YO'QOLGAN BUYUMLARNI QAYTARIB OLIH MUMKINMI?



**KO'PCHILIK** dunyo mamlakatlarini uning bayrog'i orqali yaxshi taniydi. Bayroq xuddi inson chehrasi misol, o'zida mamlakatning turmushi, o'tmishi va buguni haqida dastlabki va ko'pincha aniq tasavvurlarni taqdim etadi.

#### Sitsiliya

Sitsiliyaning qadimiy bayrog'i birinchi marta 1282-yilda Palermo-dagi Sitsiliya voqealaridan keyin qabul qilingan. Bayroqning markazida triskelion (umumiy markazdan chiquvchi uch oyoq), Meduza gorgonaning boshi, shuningdek, uch ilon (yoki bug'doy) tasviri tushirilgan. Uch oyoq Sitsiliyaning uch nuqtasini anglatadi. Triskelionning yana bir nomi-Trinakriya (yunoncha trinacrios so'zidan olingan bo'lib, uchburchak ma'nosini anglatadi), orolning antik davrda yunonlar tomonidan berilgan ilk nomi hisoblanadi (orolni fath qilganlar uning shakliga qarab shunday nom berishgan). Bayroq rangi Sitsiliyada hukmronlik qilgan Anjuy uyiga qarshi konfederatsiyaga asos solgan Palermo va Korleone shaharlari ramzidir.

#### Mozambik

Mozambik – bayrog'ida zamonaviy jangovar qurol ("Kalashnikov" avtomati) aks etgan jahondagi yagona mamlakatdir. Qurol mudofaa va mustaqillik uchun kurashni, ketmon ishlab chiqarishni, kitob esa ta'limni anglatadi. Qizil rang – mustamlakachilikka qarshilik, mustaqillik va suverenitetni himoya qilish uchun qurolli kurash; yashil rang – mamlakatning o'simlik boyligi; qora rang – Afrika qit'asi;

## G'AROYIB BAYROQLAR

**BAYROQ** – bu nafaqat belgi, balki haqiqiy mafkura hamdir. Albatta, so'nggi asrlarda bayroqning funksiyasi o'z dolzarbligini biroz yo'qotgandek bo'lsa-da, biroq bir-biriga o'xshash zerikarli bayroqlar orasida noodatiylari ham bor.

**Shubha yo'qki, o'zbekistonliklar uchun O'zbekiston bayrog'i ulug' va yuksak ramz, cheksiz iftixor timsoli hisoblanadi. Quyida keltirilgan bayroqlar esa o'zining qiziqarli ko'rinishi bilan kishi e'tiborini tortadi.**

sariq rang – mamlakatning mineral boyliklari;  
oq rang – Mozambik xalqining tinchlik yo'lidagi kurashi adolati.

#### Men oroli

Buyuk Britaniya tojiga bo'ysunuvchi Men orolining bayrog'iga oxirgi marta XIII asrning ikkinchi yarmida o'zgartirish kiritilgan, rasman 1971-yil 27-avgustda qabul qilingan. Sitsiliya bayrog'i kabi, Men orolining bayrog'i triskeliondan foydalanadi. Dunyodagi eng qadimgi bayroqlardan biri, oxirgi modifikatsiyasi XIII asrga to'g'ri keladi.

#### Nepal

Ko'rinishi klassik to'rtburchak bo'lmagan jahondagi yagona bayroq. Bayroqdagi uchburchaklar ichida oy va quyosh tasvirlangan. Ularning har biri ilgari mamlakatni boshqargan Rana sulolasining shohlaridan birini anglatadi. Yuqori uchburchakda Oy – shoh belgisi, pastki uchburchakda

esa butun sulolaning ramzi bo'lgan Quyosh tasvirlangan. Uchburchak shakli esa Everestning janubiy va shimoliy tomonlarini ifodalaydi.

#### Papua-Yangi Gvineya

Jannat qushi tasvirlangan Papua-Yangi Gvineya bayrog'ining dizayni 15 yoshli o'quvchi qiz Syuzen Xuxume tomonidan chizilgan.

#### Butan

2002-yili o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, Butan bayrog'i jahonda eng yaxshi bayroq deb topilgan.

#### Estoniya

Estoniya bayrog'i uchta rangga ega – ko'k, qora va oq. Moviy rang osmon, ko'llar va dengizni, shuningdek, milliy g'oyalar va yurtga sodiqlikni anglatadi. Qora – Estoniya diyori, millatning og'ir taqdiri, oq – tog' cho'qqilari va estonlarning mehnatga,

poklik va vatanga sadoqatga intilishi ramzini anglatadi.

Estoniya bayrog'i asl shaklini o'zgartirmasdan, yuz yildan ortiq vaqt davomida mavjud bo'lgan dunyodagi kam sonli davlat ramzlaridan biridir. U 1881-yilda Estoniya talabalarining eng qadimgi jamiyati a'zolari tomonidan ixtiro qilingan va birinchi nusxasi jamiyat asoschilaridan biri Paula tomonidan ipakdan kashta tikilgan. Bu bayroq milliy yodgorlik sanaladi va mamlakat bosh muzeyida saqlanadi. Aynan ko'k-qora-oq bayroq ostida Estoniya 1918-yilda o'z mustaqilligini e'lon qildi.

#### Shvetsariya

Dunyoda kvadrat bayroqli ikkita davlat bor. Vatikan va Shvetsariya. Shvetsariya bayrog'i – bu oq xochli qizil kvadrat. O'rta asrlarda bu rang kombinatsiyasi asosan jangovar standartlarda ishlatilgan.

1798-yilda fransuzlar Shvetsariyaga bostirib kirib, Helvetia Respublikasini tashkil qilganda, yangi hukumat eski bayroqlarni musodara qilib, ularning o'rniga yashil, qizil va sariq bayroqlarni qo'ydi.

Helvetia Respublikasi parchalanidan keyin bayroq harbiy bayroq sifatida qaytarildi, ammo u tinch aholi orasida tobora ommalashib bordi. Asta-sekin asosiy milliy ramzga aylandi. Uning maqomi faqat 1889-yilda ta'minlandi. Eng asosiysi, Shvetsariya bayrog'i tufayli tibbiy yordamning zamonaviy atributi – ya'ni, qizil xoch paydo bo'lgan. U dastlab Xalqaro Qizil xoch qo'mitasining rasmiy ramzi sifatida tashkilot asoschisi Anri Dyunning vataniga hurmat sifatida qabul qilingan.

**Madina HAMDAMOVA**  
tayyorladi